

Ingliz tilidagi modal fe'llarining etimologiyasi, semantikasi va vazifalari xususida.

*Ibrohimova Nilufar Muxtorjon qizi
Tadqiqotchi, Òzbekiston Milliy universiteti*

Annotatsiy: Ingliz tilidagi modal fe'llar so'zlovchining gapdagi asosiy fe'l bilan ifodalangan harakat yoki holatga munosabatini bildiruvchi fe'llarning o'ziga xos turkumidir.

Kalit so'zlar: modal so'zlar, modallik kategoriyasi, etimologiya, modal ma'no.

"Modal" atamasi lotincha "modus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "usul" yoki "yo'l" degan ma'noni anglatadi. Birinchi marta 1975–80 yillarda qayd etilgan; serb-xorvat tilidagi "mod(ulus) + -al" dan kelib chiqqan. Modallik so'zlovchining fikriga munosabati bilan bog'liq bo'lib, so'zlovchi nutqiga aniqlik, imkoniyat, iroda, majburiyat, zarurat va qobiliyat ma'nolarini so'z va iboralar yordamida qo'shishdir. Modal fe'l - fe'l haqida qo'shimcha ma'lumot beruvchi ko'makchi vositadir. Ya'na bir manbaada modallik "mantiqiy mulohazalar mazmunining imkoniyati, imkonsizligi, tasodifiyligi yoki zarurligini tasdiqlash yoki rad etishiga mo'ljallangan birliklar" majmui ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, "mayl va zamoni ifodalash uchun boshqa fe'l bilan birikadigan fe'l"ligi ham aytilgan. Har bir modal fe'l haqida ma'lumot berish uning etimologik ildizlari va kontekst funksiyalari bilan birgalikda o'ziga xos semantikasini ko'rib chiqishdan boshlanadi. So'zning kelib chiqishini chuqur tahlil qilish uning zamonaviy ma'nolarini ochib beradi, uning nutqda qo'llanilishi tendensiyalarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, ma'lum bir fe'lning kontekstual ma'nolarining paydo bo'lish sabablarini topishga yordam beradi. Keling endi "must" modal fe'lini to'liq tahlil qilib chiqamiz.

Etimologiyasi: "Must" modal fe'li boy etimologik tarixga ega bo'lib, "must" so'zi qadimgi inglizcha (Old English) "mōtan" so'zidan olingan bo'lib, "...ga to'g'ri kelmoq, majbur bo'lmoq, taqazo etmoq" degan ma'nolarni anglatadi. O'rta ingliz (The Middle English) tilida bu so'z "mote" ga va oxir-oqibat zamonaviy "must" shakliga aylangan.

1. "ic mōt gān tō āðe." (I must go to the oath.)
2. "þū motest bēon sēlre." (You must be better.)
3. "hē ne mōt cuman hider." (He must not come here.)
4. "wē mōton dōn þæt riht." (We must do what is right.)

semantikasi: "Must" modal fe'li birinchi navbatda ingliz tilida kuchli zarurat, majburiyat yoki aniqlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Asosan fikrga qo'shimsha hukmning majburiy, yoxud muqarrarligini anglatish uchun ishlatiladi. "Must"ning semantik funksiyalarini uchta asosiy sohaga bo'lish mumkin: epistemik modallik, deontik modallik va dinamik modallik.

Epistemik modallik nuqtai nazaridan, vaziyatga nisbatan yuqori darajadagi aniqlik yoki ehtimollikni ifodalash uchun "must" ishlatiladi. Bu so'zlovchining gapning haqiqatligiga yoki ehtimolligiga ishonchi komil ekanligini ko'rsatadi.

Deontik modallik matnda, yoki nutqda majburiyat, zarurat yoki taqiqning kuchliligini yetkazish uchun ishlatiladi. Bu qoidalar, qonun yoki ijtimoiy me'yorlar asosida harakat talab qilinishi yoki taqiqlanishini ko'rsatib turadi.

Dinamik modallikka keladigan bo'lsak, "must" harakatni amalga oshirish qobiliyati, tayyorligi yoki niyatining kuchli tasdig'ini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bunda modal fe'l so'zlovchining muayyan harakat yo'nalishidagi qat'iyatini yoki majburiyatini bildiradi.

1. Epistemik modallik:

- He must be at home by now. (Certainty)
- The meeting must start on time. (Expectation)
- She must have forgotten her keys. (Inference)

2. Deontik modallik:

- You must submit your assignment by the deadline. (Obligation)
- We must follow the safety guidelines at all times. (Requirement)
- They must not enter the restricted area. (Prohibition)

3. Dinamik modallik:

- I must finish this project before the deadline. (Determination)
- She must speak to the manager about her concerns. (Intention)
- They must find a solution to the problem. (Commitment)

Vazifasi

“Must” modal fe’li kontekstga qarab turli vazifalarni bajaradi.

1. Zarurlikni ifodalash:

- You must wear a helmet while riding a bike.
- Students must study for their exams diligently.
- We must take action to address climate change.

2. Majburiyatni ifodalash:

- Employees must attend the training session tomorrow.
- Parents must ensure their children's safety at all times.
- Citizens must obey the laws of the land.

3. Anqlikni ifodalash:

- The package must have arrived by now.
- She must be the most qualified candidate for the job.
- They must know about the changes in the schedule.

4. Taqiqni ifodalash:

- You must not smoke in this area.
- Visitors must not touch the artifacts in the museum.
- Students must not cheat during exams.

5. Xulosa bildirish:

- The phone is ringing; she must be calling.
- He's wearing a suit; he must be going to a formal event.
- The store is closed; they must have gone home early.

6. Deduksiyani ifodalash:

- The road is wet; it must have rained recently.
- She looks tired; she must have had a long day.
- He's carrying a backpack; he must be going hiking.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “must” modal fe’li ingliz tilidagi gaplarda zarurat, majburiyat, aniqlik va xulosani ifodalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nordquist, Richard. "Modal Verbs in English." ThoughtCo, Jul. 31, 2021, [thoughtco.com/modal-auxiliary-term-1691397](https://www.thoughtco.com/modal-auxiliary-term-1691397)
2. "Modality: Meanings and Uses." English Grammar Today, Cambridge Dictionary
3. Sponaule, Brittani. "Modal Verbs: Express the Function of a Verb." UdeMy, 12 June 2014.
4. "Modality: Meanings and Uses." English Grammar Today, Cambridge Dictionary
5. Дмитриев К.Н. Категория принадлежности. ИСГТЯ, Ч.II. -М., 1956. – С.22; Севортян. Э.В. К проблеме частей речи в тюркских языках //Вопросы грамматического строя. -М., 1960. -С.146-154
6. Хожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. - Тошкент, 1979. – 80 б.
7. Усмонов С. Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формалари. // Низомий номидаги ТДПИ илмий асарлар. -Тошкент, 1964.- 42-китоб. -Б.126-127;
8. Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. –Тошкент, 1944. – 56 б.; Раҳматуллаев Ш. Хурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. - №1.- Б. 28-30.

